

TURLI JUFTLASH VARIANTIDAN OLINGAN QORAQALPOQ SUR QORAKO'L QO'ZILARINING RANGBARANGLIK KO'RSATKICHLARI VA GUL TIPLARI

D.Yu.Abduzoirova

Mustaqil izlanuvchi (DSc), q.x.f.f.d (PhD), k.i.x.

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

e-mail: uzkarakul@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17556169>

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarining rangbarangligi va gul tiplarini o'rganish borasidagi tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar. qoraqalpoq suri, rangbaranglik, gul tiplari, yarim doira qalamgul, qovurg'asimon, yassi.

Annotatsiya.

Qorako'l qo'ylaridan olinadigan mahsulotlar juda xilma xildir. Qorako'l qo'ylarining asosiy mahsuloti bo'lgan qorako'l terilari o'zining naqshinkorligi, rangbarangliklarining turli-tumanligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Qorako'l zotida 10 dan ortiq rang va 30 dan ziyod rangbarangliklar farqlanadi. Ular orasida qoraqalpoq sur terilari o'zining rangbarangliklarining antiqaligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylari alohida genofond hisoblanib, ularda rangbaranglikning nasldan naslga o'tishi genotipik va tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'ladi.

Qorako'l qo'ylarida muhim seleksion belgilarning u yoki bu darajada shakllanishini o'rganish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylari avlodlarining rangbarangliklarga taqsimlanishida shamchiroq rangbaranglikdagi qo'ylarni gomogen juftlash variantida shamchiroq rangbaranglikdagi avlodlar salomog'i $70,0 \pm 4,58$ foizni, po'lati va o'rikgul rangbaranglikdagi avlodlar salmog'i $15,0 \pm 3,57$ foizni tashkil etganligi qayd etilgan. [1].

Rangbarangliklarni mustahkamlashda gomogen tanlash yaxshi samara beradi. Gomogen tanlash olib borilganda o'ziga o'xshash rangbaranglikdagi qo'zilarini olishda shamchiroq rangbarangligidagi qo'ylarda 71,6% ni, po'lati rangbarangligidagi qo'ylarda 71,5% ni, o'rikgul rangbarangligidagi qo'ylarda 68,8% ni, qamar rang-barangligidagi qo'ylarda 65,8% ni tashkil etgan. Naslli qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarini sinflarga taqsimlanganda, sara va birinchi sinfga mansublik shamchiroqgulda 66,3%, o'rikgulda 60,5%, po'latida 63,7%, qamarda 44,1-53,0 foiz atrofida bo'lganligi aniqlangan [4; 5].

"Barra tipi-bu barra teri belgilarining yig'indisi bo'lib, ular orasida asosiysi ma'lum gul o'lchami, uzunligi, joylashish aniqligi va rasmi, jun-tola qoplami sifati, hamda hayvonlarning rivojlanishi va konstitutsiyasi bilan bog'liq holda shakllanadigan qalam gullarning shakli va tipi hisoblanadi". Boshlang'ich davrlarda qorako'l qo'zilarini barra tiplari bo'yicha klassifikatsiyalashning yangi tizimini ishlab chiqishda jaket (yarim doira qalamgul) guruhidagi qorako'l terilari ishlab chiqarishni ko'paytirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan [2].

Tadqiqot maqsadi. Nurota zavod tipiga mansub qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarida rangbaranglik va gul tiplarining taqsimlanishi bo'yicha ko'rsatkichlarini o'rganish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar Navoiy viloyati, Nurota tumani, "Istiqlol qorako'l naslchilik" MChJ da olib borildi.

Rang va rangbaranglik ko'rsatkichlaridan rangbarangliklarning salmog'i hamda gul tiplari bo'yicha taqsimlanishi organoleptik usulda aniqlanib, foizda ifodalandi.

Tajribadan olingan raqamli ma'lumotlar variatsion statistika usullarida qayta ishlandi [3] Har bir belgining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi ($\bar{X}$), uning xatosi (S_x), o'zgaruvchanlik koeffitsienti (C_v) hisoblandi. Guruhlar ko'rsatkichlari orasidagi farqlanishlarning ishonchlik darajasi (P) aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Mahsuldorlikning muhim belgilaridan hisoblangan rangbaranglik va gul tiplari turli juftlash variantlaridan olingan avlodlarda o'rganildi.

Rangbaranglik qorako'l terilarining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanib, uning qimmati va narxini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Qoraqalpoq surida eng ko'p uchraydigan rangbarangliklar shamchiroqqul, o'rikgul, po'lati va qamar rangbarangliklardir. Rangbaranglikning namoyon bo'lish darajalarini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, rangbaranglik bo'yicha gomogen juftlash aynan shu rangbaranglikni avlodlarda yuqori darajada kuzatilishini ta'minlaydi. "Shamchiroqqul x shamchiroqqul" gomogen juftlashda $67,0 \pm 6,64$ shamchiroqqul rangbaranglikdagi avlodlar olingan. Bu esa o'z navbatida "shamchiroqqul x po'lati" juftlashga nisbatan ($44,0 \pm 7,01$) 23,0 % ga va "shamchiroqqul x o'rikgul" tarzida juftlanganda olingan ko'rsatkichdan ($36,5 \pm 6,80$) 30,5 % ga ustunlik qilganligi aniqlandi.

Ushbu gomogen va geterogen juftlash ishlaridan olingan natijalardan yana shunday xulosa kelib chiqadiki, ya'ni, geterogen juftlashda shamchiroqqul qo'chqorlarni po'lati rangbaranglikdagi soviqlar bilan juftlash usulida $31,0 \pm 6,54$ % po'lati rangbaranglik; "shamchiroqqul x o'rikgul" usulida esa $36,5 \pm 6,80$ % o'rikgul rangbaranglikdagi avlodlar olindi. "Shamchiroqqul x qamar" juftlashda esa $41,0 \pm 6,95$ % shamchiroqqul rangbarangligidagi qo'zilar olindi. Ushbu olingan natijalar qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarida rangbaranglikning kuchli seleksion belgi ekanligini va nasldan -naslga yaxshi berilishini isbotlaydi va bundan seleksiya amaliyotida samarali foydalanish mumkin.

Qorako'l qo'ylarining zotdorlik va nasliy qimmatligini aniqlashda gul tiplari muhim ahamiyatga ega. Gomogen va geteron juftlashda gul tiplari bo'yicha olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli juftlash variantlarida avlodlarning rangbarangligi

Juftlash varianti				Olingan avlodlar				
♂		♀						
T/r	Rangbarangligi		n	Shundan, %(X±S _x)				
				Shamchiro qgul	Po'lati	O'rikgul	Qamar	Boshqalar
1	Shamchiro qgul	Shamchir oqgul	50	67,0±6,64	13,0±4,75	13,0±4,75	-	7,0±3,60
2	Shamchiro qgul	Po'lati	50	44,0±7,01 ^x	31,0±6,54 ^x	15,0±5,04	7,0±3,60	3,0±2,41
3	Shamchiro qgul	O'rikgul	50	36,5±6,80 ^x	16,5±5,24	36,5±6,80 ^x	6,0±3,35	4,5±2,93
4	Shamchiro qgul	Qamar	50	41,0±6,95 ^x	13,0±4,75	7,1±3,63	36,0±6,78 ^x	2,9±2,27

2-jadval

Turli juftlash variantlarida avlodlarning gul tiplariga taqsimlanishi

Juftlash varianti				Olingan avlodlar				
♂		♀						
T/r	Rangbarangligi		n	Shundan, %(X±S _x)				
				Yarim doira qalamgul	Qovurg'a simon	Yassi	Boshqalar	Yarim doira qalamgul
1	Shamchiroqgul	Shamchiroqgul	50	61,0±6,89	20,5±5,70	13,0±4,75	5,5±3,22	61,0±6,89
2	Shamchiroqgul	Po'lati	50	57,4±6,99	21,0±5,76	15,5±1,30	6,1±3,38	57,4±6,99
3	Shamchiroqgul	O'rikgul	50	56,0±7,01	18,0±5,43	17,0±5,31	9,0±4,04	56,0±7,01
4	Shamchiroqgul	Qamar	50	54,2±7,04	16,5±5,24	18,3±5,46	11,0±4,42 ^{xx}	54,2±7,04

^{xx} P<0,05

Jadvallarda keltirilganidek, qimmatli gul tiplari bo'yicha ma'lum taffovudlar aniqlangan. Yarim doira qalamgul tipidagi avlodlar "shamchiroqgul x shamchiroqgul" juftlashda ko'p olingan bo'lib (61,0±6,89%), boshqalarga nisbatan tegishli 3,6% (57,4±6,99), 5,0 % ga (56,0±7,01) va 6,8 % ga (54,2±7,04) ga ustunlik qilgan. Qovurg'asimon gul tipi "shamchiroqgul x po'lati" geterogen juftlash usulida ko'proq (21,0±5,76) bo'lganligiga esa, shamchiroqgul rangbarangligida jun tolalarining po'lati va o'rikgul rangbarangliklariga nisbatan biroz kaltaroq bo'lishi sabab bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining "Nurota" zavod tipini ko'paytirish va mahsuldorligini yanada yaxshilash maqsadida "shamchiroqgul x shamchiroqgul" va "shamchiroqgul x po'lati" juftlash usullarni qo'llash lozimdir, chunki ushbu terilarni sotish samaradorligi yuqoriligi bilan keskin ajralib turadi va seleksiya-naslchilik ishlarini aynan shu yo'nalishdagi rangbarangliklarga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. "shamchiroqgul x qamar" juftlash usulida esa qamar rangbarangligini shamchiroqgul rangbarangligi yordamida yaxshilash imkoniyati paydo bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Gaziyeu A., Urimbetov A. Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini turli juftlashda avlodlarning rangbaranglik ko'rsatkichlari. Chorvachilik va naslchilik ishi. № 04. 2023-yil 22-23-bet.
2. Дьячков И.Н. Дифференциация каракульской породы в зависимости от природных условий. Проблемы освоения пустынь, Ташкент, 1971, с. 61-64.
3. Лакин Г.Ф. Биометрия.-М.: Высшая школа, 1968, -284 с. Изучение мясной продуктивности овец. Методические рекомендации. М. 1978. с-43.
4. Turganbaev R.U. Qoraqalpoq tipiga mansub sur rangli qorako'l qo'ylarining mahsuldorligini takomillashtirish. //Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2017, 52 b.
5. Xatamov A.X. Adir sharoitida turli etologik tipdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining bio-mahsuldorlik xususiyatlari. Avtoref. q/x f.f. d. diss. 2019. 39 b.